

# XALQ DOSTONLARIDA FE'LGA MANSUB SO'ZLARDAGI KO'PMA'NOLILIK HODISASI.

*Xamdamova. Xanifa*  
*JizPI dotsenti, PhD*

## **Annotatsiya**

Ushbu maqolada xalq og'zaki ijodining yirik janri hisoblangan dostonlardagi ko'pma'nolilik hodisasining matn semantik qurilishidagi ahamiyati, xususan, fe'l so'z turkumiga oid bir qator so'zlarning polisemiya hodisasi asosida ko'chma ma'no anglatishi kabi masalalar o'z aksini topgan.

Kalit so'zlar: xalq og'zaki ijodi, polisemiya, ko'chma ma'no, semantik qurilish, ko'pma'nolilik, fe'l so'z turkumi.

## **Аннотация**

В данной статье рассматривается значение явления многозначности в былинах, считающихся основным жанром народного творчества, в смысловом построении текста, в частности, таких вопросах, как переносное значение ряда слов глагола.

*Ключевые слова: фольклор, полисемия, переносное значение, семантическая конструкция, полисемия, глагольное словосочетание.*

## **Annotatsion**

This article examines the significance of the phenomenon of polysemy in epics, considered the main genre of folk art, in the semantic construction of the text, in particular, such issues as the figurative meaning of a number of verb words.

*Key words: folklore, polysemy, figurative meaning, semantic construction, polysemy, verb phrase.*

**Kirish:** Avvalo, ta'kidlash lozimki, ko'p ma'nolilik har qanday tilda salmoqli o'rin tutadi. Til boyligi faqat so'zlar, iboralar bilangina emas, so'zlarning leksik ma'nolari bilan ham o'lchanadi. So'zlarning ko'p ma'noliligi – polisemiya hodisasi til boyligida o'z o'rniga ega. Ko'p ma'noli so'zning alohida olingan semalari qanchalar rang-barang bo'lmasin, ular har doim yagona ma'noviy asos tevaragida guruhlashadi. Ikkilamchi ma'nolar dastlabki ma'noning keyingi taraqqiyoti tarzda e'tirof etiladi. Ko'p ma'nolilik so'zning semantik qurilishiga oid lisoniy hodisalardandir. Birdan ortiq ma'noga egalik (polisemiya) deyarli barcha so'z turkumlarida uchraydi. Ayni tamoyillarga asoslanib «Rustamxon» dostoni matnida qo'llangan ko'p ma'noli so'zlarni semantik, leksik-grammatik va genealogik nuqtai nazardan o'rganishga harakat qildik.

Dastlab ish-harakat va holat ma'nosida qo'llanilgan so'zlardagi ko'p ma'nolilik masalasiga qisqacha to'xtalamiz. Izlanishlarimiz ko'p ma'nolilikning fe'l kategoriyasiga oid so'zlarda faolligini ko'rsatdi. Doston matnida ellikdan ortiq sof turkiycha ko'p ma'noli fe'llar uchradi. Quyida ushbu fe'llarning ayrimlariga to'xtalamiz.

Biz o‘rgangan doston matnida ko‘rmoq fe‘l leksemasi quyidagi ma’nolarda ishlatilganligi ma’lum bo‘ldi:

1) “Ko‘rish qobiliyatiga ega bo‘lmoq, epik qahramon va narsalarning borliqning ko‘rinishi qandayligini farqlay bilmoq” ma’nosida: Ko‘nglida sal quvvat enganday bo‘lib, ko‘zini ochdi. Boyagi o‘zining boqib yurgan tozilarini ko‘rdi, Rustamga ko‘zi tushmay, bu so‘zlarni aytib turdi: (387); Shu vaqtda Huroyim Rustamni ko‘rdi; dunyoga qaytadan kelganday bo‘ldi.(389);

2) “Duch kelmoq, ko‘rmoq, uchratmoq” ma’nosida: Bu yerlarni Huroyim ko‘rdi, chaldivor, cho‘liston bo‘lib qolgan, Arabning qilgan ishi shu bo‘lgan. (382); Hayallamay beri kelgin, Rustamjon! // Seni ko‘rdim, ketdi mendan yuz armon, (389);

3) “Boshdan kechirmoq” ma’nosida: Ajab ishlar ko‘rdim foni dunyoda, // Uch kun yayov yurdim poyi piyoda. (382); Jallodlar zulmida og‘ir kun ko‘rdim, // Yetmagan ajalim, qutulib qoldim. (391);

4) “Ko‘z bilan ilg‘amoq, ko‘z vositasida aniq farqlamoq, sezmoq, bilmoq” ma’nosida: Bir qora ko‘ziga ko‘rindi. Ko‘rdi, to‘zon kelayapti. (385); Jallod, eshit mening aytgan so‘zimdi, // Men ham ko‘rdim kelayotgan qo‘zimdi, (386);

5) “Biror narsani ta’kidlash va unga diqqat-e’tiborni jalb etish” ma’nosida: Ko‘rdi: bu rabot tillaning suvini yugurtirib solgan, eshik bo‘zag‘alarini yoqut-javohirotlardan o‘tqazib, tilladan suv bergan. (394); Ko‘rdi: ajab suratli bir qiz, jamoli kunni xira qilguday, har kim husnini ko‘rsa, aqli ketib, otdan yiqilib qolguday. (396);

6) “Hol-ahvol so‘rab yo‘qlamoq” yoki “so‘rash orqali vaziyatni bilmoqlik” ma’nolarida: Omon-eson o‘lmay, enajon, ko‘rdim, // Eson-omon ko‘rdim sening davlating. (390); Hayron qolib, ahvolingni so‘rayman. // Elingni ko‘rdimu bo‘lganman hayron, (402);

7) “Biror kimsa yoki narsaga ega bo‘lmoq, erishmoq, yetishmoq” ma’nolarida: Yotib edim tong oldida tush ko‘rdim, // Bu tushimda bir ajoyib ish ko‘rdim, // G‘arib bo‘lgan ko‘nglimni xush ko‘rdim, // Bu tushimda u ajdahar o‘lganday, (405); Tog‘ay kelib yangi ko‘rdi beklikni, // Shiqirlatib kiydi-ku ko‘k etikni. (410);

8) “Yuz bergan voqeaga boshqa kishi yoki narsani sabab qilib ko‘rsatmoq” ma’nosida: Necha vaqtlar qolding horlik tortib, // Bu yerda kun ko‘rding ko‘p g‘amga botib, (416); Avval qilich urib so‘ngra bildim, // Ajdahar o‘lganin, men so‘ngra ko‘rdim, // Tirik emas, o‘likka duchor bo‘ldim; // Shohim, borib Oftob qizingni ko‘rdim, (417);

9) “Ko‘z bilan ko‘rmoq, ko‘z vositasida aniq farqlamoq, sezmoq, bilmoq” ma’nosida: Zo‘r ajdahar armon bilan o‘libdi, // Sanab ko‘rdi: qirq bir bo‘lak

bo'libdi. (415); Enasini ko'rdi, ikki tozini ikki yoqqa boylab, yo'lga tiklab o'tiribdi. (422);

Dostonda ko'rmoq fe'l leksemasi ko'makchi fe'l vazifasida "muayyan harakatning sinash uchun bajarilish natijasini, hohish-istagini yoki bajarilmaslik haqidagi ogohlantirish, umidsizlik" ma'nosini ifodalaydigan matnlar ham uchraydi.

Dostonda faol ishlatilgan o'tmoq fe'li ham bir necha ma'noni ifodalashi bilan diqqatimizni tortdi. Hozirgi o'zbek tilida bu so'zning yigirma besh ma'nosi aniqlangan (O'TIL, 5, 181-183). Ushbu fe'lning eski turkiy tilda faol qo'llanganligi (DTS, 391), Navoiy asarlari tilida o'n ma'noda ishlatilganligi (ANATIL, II, 614-615), xususan, shoir tarixiy asarlari leksikasida sakkiz ma'noda qo'llanganligi aniqlangan. Biz o'rgangan doston tilida ushbu fe'l leksemaning quyidagi ma'nolarda qo'llangani ko'zga tashlandi:

1) "Muayyan yo'nalishda harakatda bo'lmoq (yurmoq, uchmoq, oqmoq va x.k)" ma'nosida: O'tar dunyo o'tarini o'ylading, // Qiyomat deb, shirin joning qiynading, (423); G'amu kulfat ketib, ena, boshingdan, // Ko'rmaganday bo'lib bunda yurarsan. (423);

2) "Biror makonda, ma'lum bir yo'nalishdagi harakatni ta'minlaydigan narsa yo'nalgan" ma'nosida: Tog'ning toshi zing'illashib o'tadi. // Ajdahar damiga toshlar ketadi. (400);

3) "Ma'lum joy, sath va shu kabi oralig'ida (biror tomonga qarab) harakatlanmoq, shunday harakat bilan uni orqada qoldirib, undan keyingi joyda mavjud bo'lmoq" ma'nosida: Shunday qilib qirq kechayu qirq kunduz oradan o'tdi; yo dev, yo odamzod: «bu joy bizniki edi», deb kelmadi. (395);

4) "Egalik, tasarruf o'rni o'zgarmoq" ma'nosida: Josus degan so'zing menga o'tadi, // Bachchag'ar, josus deb kimni aytadi?! (403); Bahra tog'dan o'tib yo'l yurib ketdi, // Adadsiz cho'llarni ko'p bosib o'tdi. (442);

5) "Keyinda qolmoq; kechirmoq (gunoh haqida)" ma'nosida: Shu oqshom Oqsaroyda o'tdi. (405); Kunin borib, kelaman deb edi, uch yarim oy o'tdi, hali daragi yo'q. (422);

6) "Bir xil yo'nalishdagi harakatda (yurish va b.) ortda qoldirmoq, undan uzoqlashib ketmoq" ma'nosida: Yurt topshirib kelgan Huroyim yoring, // Necha yillar o'tdi, yo'qdir xabaring, (364); Shunda Sultonxon: - Biz Oqtoshdan chiqib ketganimizga necha zamon o'tdi, balki o'n to'rt yilga yaqinlab yetdi. (365);

7) "Yuz bermoq, bo'lib o'tmoq (jabrlanish)" ma'nosida: Rustamxon aytdi: - Men enadan bino bo'lgandan beri umrim tagizaminda [o'qishda] o'tdi. (372); Rustamning zarbidan ajdahar o'tdi, // Tog'ning jondoriga yemish bo'p yotdi; (400);

8) “Jondan o‘tmoq – azob beradigan darajada qattiq ta’sir qilmoq” ma’nosida: Jafu tig‘i bukun jondan o‘tadi, // Meni taqdir shu kulfatga eltadi, (431);

9. “Kun o‘tmoq – muayyan muddat (vaqt)” ma’nosida: Shunday gaplar kirib sening tushingga: // Kun o‘tmaydi jallod kelar qoshingga. (366); Hayal o‘tmay kelib qolar ustingga, // Tortganda damiga duchor bo‘lasan! (398);

Ta’kidlash lozimki, “Qadimgi turkiy lug‘atida” qayd etilishicha, o‘tmoq so‘zining qadimgi va eski turkiy til yozma yodgorliklarida ikki ma’nosi, ya’ni “ichiga kirmoq, suqilib kirmoq” va “ado bo‘lmoq, tugamoq” ma’nolarida qo‘llanilgan (391). Biz o‘rgangan doston matnida ushbu fe’l leksemaning to‘qqiz ma’nosi qo‘llanganini ko‘rsatdi. Bu o‘z navbatida o‘tmoq fe’li leksemasining ko‘p ma’nolilik tabiati xilma-xil ekanligini ko‘rsatsa, ayni paytda, xalq baxshisining doston kuylash jarayonidagi noyob iqtidori yuksakligini tasdiqlay oladi.

“Biror yeridan ushlab, tutib, o‘ziga tomon surmoq yoki surishga harakat qilmoq” ma’nosidagi tortmoq istilohining hozirgi o‘zbek adabiy tilida yigirma bir ma’noda qo‘llanganligi tilshunoslikda aniqlangan (O‘TIL, 4, 154-156). Ushbu fe’l leksemaning ko‘p ma’nolilik tabiati qadimgi yozma yodgorliklarda ham mavjudligi ma’lum (DTS, 538). Navoiy tarixiy asarlari leksikasida o‘n uch ma’noda ishlatilganligi ham aniqlangan. Biz o‘rgangan doston matni ham ushbu leksemaning matn tarkibidagi ma’nolari xilma-xil ekanligi ma’lum bo‘ldi.

1) “Dalda bermoqlik yoki biror nasihat qilmoqlik” ma’nosida: Ko‘rinmagan yo‘lbarsdan ko‘rqib, bunday xafalik tortma. (392); Yolg‘iz qolib ko‘zdan yoshin to‘kmasin, // Motam tutib yana afsus tortmasin. (406);

2) “Muayyan harakatni tezlashtirmoq, tezlik bilan yo‘l yurmoq yoki yo‘l yurmoq, yo‘lda davom etmoq” ma’nosida: Rustam bu so‘zni aytib turib edi, tozilar yo‘l tortib, chap qo‘ldagi yo‘lga tushib jo‘nay berdi. (382); Necha kundan beri yo‘l tortib Huroyim bechora abgor, abgashta bo‘lib kelgan. (382);

3) “Biror yeridan o‘ziga tomon tortmoq yoki tortishga harakat qilmoq” ma’nosida: U bir katta ilon; qora ko‘ringandan damiga tortadi, odam damiga tortadi, odam boruvi bilan ot-poti bilan ichiga urib ketadi; (407); Ancha o‘tib otning boshini tortdi, // Ajdahar qoyagaga er Tog‘ay yetdi. (415);

4) “Ovozni balandlamoq, yuqori ko‘tarmoq yoki kuchli ovoz chiqarmoq” ma’nosida: G‘orda yotar edi, xurrakni baland tortar edi, botmon nosvoyni to‘rt bo‘lib otar edi, (356); Huroyim birga otlanib, tozilarini iyartib, Bahra tog‘iga qarab yo‘l tortdi. (394);

5) “Harakat qilmoq, mashaqqat tortmoq” ma’nosida: Qistab yurar endi ostida otdi, // Cho‘lu ko‘lda necha vaqtlar yo‘l tortdi. (392); Bizlar xafa bo‘ldik sening holingga, // Piyodalab yo‘l tortgan ahvolingga, (364);

6) “Hursandlik bilan qator turmoq yoki ketma-ket joylashmoq” ma’nosida: Buyoqda keyinida jallodlar sarboz nag‘masi qilib, sibiziq, surnay tortib borayapti. (369); Kelsa mamlakatni to‘zon qiladi, // Ishqirib damiga tortib oladi, (398);

7) “Yuziga tortmoq yoki jalb qilmoq, munosabat bildirmoq” ma’nosida: «Endi bo‘lmadi, Rustamdan hech xabar kelmadi, vaqti-zamoni mening kunim bitdi», deb fotihani yuziga tortib, jondan umidini uzib, tag‘i ko‘z tutib, qibla betga qaradi. (385); Mening mehrim tortib, shu g‘ayrat bilan Rustam kelsa, mening bu ahvolimni ko‘rsa, bu jallodlarni omon qo‘ymaydi. (385);

8) Dorga tortmoq – “dorga osmoq” ma’nosida: Haydab borib bizlar Mansur doriga, // Boshin kesib ani, dorga tortamiz. (368); Gapingga jallodlar quloq solmaydi, // Kel, shallaqi, cholib dorga tortayin! (383);

9) Lashkar tortmoq - “Qo‘shin bilan yurish qilmoq, bosib bormoq” ma’nosida: Qancha sipoyi ham adadsiz lashkar, // Shavkati olamni bosib boradi. (355); Oqtosh tarafiga qarab qo‘shinini iyartib ketdi. (382) kabi.

Keltirilgan misollar tortmoq so‘zining nafaqat mustaqil, balki boshqa leksik birliklar bilan sintagmatik munosabatga kirishib, yordamchi fe‘l vazifasini o‘taganini ham tasdiqlaydi. «Rustamxon» dostoni matnida bu so‘z o‘ttizdan ortiq o‘rinda yuqorida keltirilgan to‘qqiz ma’noda qo‘llanganligi aniqlandi.

**Xulosa:**Biz tadqiqotning hajmi imkoniyatidan kelib chiqib, yuqorida faqatgina solmoq, o‘tmoq, tortmoq, ko‘rmoq kabi fe‘l leksemalarining matndagi ma’no qirralarini ko‘rib chiqish bilan cheklandik. Bu boradagi keng qamrovli muayyan kuzatishlarimizni monografik tadqiqotda berishni ma’qul topdik.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Hodi Zarif. “Rustamxon” dostoni.– T.: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1985.
2. Mirtojdiyev M. O‘zbek tilida polisemiya. – Toshkent: Fan. 1975. – B. 3.
3. Budagov R.A. Vvedeniye v nauka o yazyke. – M.: Uchpedgiz, 1958. –S 39-50.
4. O‘zbek tili leksikologiyasi. –Toshkent: Fan, 1981. –B.209.
5. O‘TIL, 5, 2020: 469-470
6. Abduvaliyeva D. Alisher Navoiy tarixiy asarlar leksikasi, –Toshkent.: Fan. 2016, 149-151 b.
7. ANATIL, II, 614-615.

8. Jumanazarova G. Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li dostonlar tilining lingvopoetikasi (leksik-semantik, lingvostilistik va lingvostatistik tahlil). Doktorlik dissertatsiyasi. Toshkent, 2017 yil.